

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA RIVOJLANISH MARKAZLARI BILAN BO'G'LIQ PEDAGOGIK YONDASHUV.

Alimova Zulfiya.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi.

Ramazonova Sevinch Sodiq qizi.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi I - bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning qiziqishlarini rivojlanish markazlariga bog'liq holda to'g'ri yo'naltirish, shu bilan birga tarbiyachi pedagoglarning har tomonlama mukammal bo'lishi lozimligi, eng muhimi zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalana olishi to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy texnologiya, pedagog, rivojlanish va rivojlanish markazkari.

Kirish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ilk bor Fridrix Frebel tomonidan yaratilgan. Xozirgi kunda rivojlanish markazlari yordamida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish faoliyati ancha osonlashgan. Rivojlanish markazkarining maqsadi bolalarning kelajakda yetuk inson bo'lishlarini ta'minlash bo'lsa, vazifasi esa ularning qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish hisoblanadi. Hozirgi kunda 5ta rivojlanish markazlari mavjud va ularning har biri o'z funksiyasiga ega hisoblanadi. Rivojlanish markazlari orqali bolalarni kuzatamiz va ularning qobiliyatlari hamda qiziqishlarini aniqlaymiz. Kuzatishlar natijasiga ko'ra bolani maqsadlari sari to'g'ri yo'naltiramiz. Buning uchun esa tarbiyachi pedagogdan kuchli mahorat va mas'uliyat talab etiladi. Rivojlanish markazlaridan foydalanish jarayonini to'g'ri tashkil etish muhim sanaladi. Bolani har kuni bitta markazda emas balki turli markazlarda shug'ullantirishimiz lozim. Buning natijasida bolada har tomonlama bilim, ko'nikma, malaka shakllanib boradi.

Asosiy qism.

Bolani har tomonlama mukammal rivojlanishini ta'minlash biz kattalarning eng muhim vazifalarimizdan biridir. Buning uchun biz bolalar bilan ko'proq muloqotda bo'lishimiz lozim, bu orqali biz bolaning so'zlashuv madaniyatini rivojlantirib boramiz. Aynan nutq borasida ish olib borishimiz uchun "Til va nutq markazi"dan foydalanishimiz lozim. Bu markazning asosiy maqsadi ham bola nutqini rivojlantirishdir. Bolaning nutqini rivojlantirish uchun biz topishmoqlar, turli tez aytishlar, maqollar va ertaklarga yuzlanamiz. Bola ertak va hikoyalarni eshitish orqali nafaqat nutqi rivojlanadi balki xulosa chiqarishni ham o'rganib boradi. Aynan nutq

borasida 'Tosheva Nurzoda Toshtemirovna "Maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etish" kitobida Nutq madaniyati - ijtimoiy madaniyatni kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir deb ta'kidlaydi. Bu fikrlarga qo'shilgan holda shuni ayta olamanki biz qanchalik nutq madaniyatimizga e'tibor qaratib uni yuksaltirar ekanmiz jamiyat shunchalik rivojlanib va go'zallashib boradi.

Bola rivojlanishida xizmat ko'rsatuvchi ikkinchi markaz bu "Qurish yasash, konstruksiyalash va matematik mashg'ulotlar" markazi. Bu markazda bolaning sensor qobiliyatlari, qo'l mayda matorikasi shu bilan birga aqliy qobiliyatlari ham rivojlanib boradi. Buning uchun tarbiyachi pedagoglardan katta mahorat va mas'uliyat talab qilinadi. Bola legolardan narsa yasash orqali matematik bilimlarini ham oshirib boradi. Masalan bola legodan uy yasamoqda bu jarayonda u geometrik shakllarni shu bilan birga sonlarni ham o'rganib boradi. Pedagoglarning vazifasi o'yin vaqtida bolalarning axil inoqligini ta'minlash va o'yin jarayonini mazmunli tashkil etishdan iborat.

Uchinchi rivojlanish markazimiz bu "San'at markazi" hisoblanadi. Bu markazning asosiy ish qurollari rangli qog'oz va qalamlar, loy hamda plastilinlar sanaladi. Bu markazda bolaning qo'l mayda matorikasi rivojlanadi. Shuni aytishimiz joizki bolaning nutqi ham qo'l mayda matorikasi orqali rivojlanadi. Undan tashqari san'at markazida applikasiya usulida buyumlar yasash ham o'rgatiladi, bu jarayon orqali bolalarda mo'ljal olish qobiliyati shakllanib boradi.² Hasanboyevaning "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" asarida San'at markazi haqida bolalarning kayfiyatini ko'taradi deb ta'rif berilgan. San'at markazida taqlidchanlik boshqa markazlarga qaraganda kuchli bo'ladi. Shunday ekan tarbiyachi pedagog o'zining xatti-harakatlarini nazorat qila olishi lozim. Bu esa tarbiyachi xar tomonlama mukammal bo'lishi lozim degan fikrimizning yaqqol isboti desak mubolag'a bo'lmaydi.

To'rtinchi rivojlanish markazi esa "Syujetli rolli o'yinlar va daramalashtirilgan markaz". Bu markazda alohida e'tibor qaratiladigan jihat bu guruh yoshi hisoblanadi. Chunki bu markaz qoidali o'yinlar bilan tashkil etiladi. O'yinlar borasida K.D.Ushenskiy" insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan" deb fikr bildiradi. O'yin borasida Amos Komenskiy esa "o'yin bola faoliyatining, uning tabiati va xohishlariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Darhaqiqat o'yin orqali bola ko'pgina tarbiyani o'zida o'zlashtiradi. Qoidali o'yinlar asosan jamoa bo'lib o'ynaladi buning natijasida bola jamoa o'rtasida so'z erkinligiga erishadi, jamoa o'rtasida o'zini tuta bilish qobiliyati shakllanadi shu bilan birga o'ziga bo'lgan ishonchi ortib boradi. Bolada asosiy faoliyat o'yin faoliyati bo'lganligi sabab o'yin orqali ko'p narsalarni o'zida mujassam etadi.

Beshinchi rivojlanish markazi "Ilm fan va tabiat markazi" hisoblanadi. Bu markaz bolani tabiat va atrof muhitni xurmat qilishga hamda uning ne'matlaridan

oqilona foydalanishga undovchi markaz sanaladi. Tabiat qo'ynida bolani sayr qildirish bola sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu markazning asosiy maqsadi ilm fan va tabiatni bir biriga bog'liq holda o'rganishdir. Masalan bolaga daraxt ostidagi to'kilgan barglarni terdirish orqali xazonrezgilikni, begona o'tlardan tozalash orqali esa ularning zararli ekanligini o'rgatish mumkin. Ilm fan va tabiat markazida turli tajribalar o'tkazish orqali bolada tabiatga nisbatan mehr uyg'onadi. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bola tabiat haqida 90% ma'lumotga ega bo'ladi. Bu uchun oddiygina tajriba urug' undirish jarayonini misol qilsak bo'ladi. Bolalarga urug'ni tuvakka ekib urug'ni parvarish qilishni o'rgatsak yuqorida aytganimizdek tabiatga mehr va yangi bilimlar shakllanib boradi. Shu bilan birga bolada ixtiro qilish uchun g'oyalar paydo bo'ladi. Bu tajribalarni mukammal qilib o'tkazish tarbiyachi mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa: Ushbu maqoladan shuni xulosa qilishimiz mumkinki bola xar doim turli markazda faoliyat yuritishi lozim. Aks holda u bitta faoliyat bilan qolib ketadi. Xar bir markazning bola hayotidagi o'rni beqiyosdir. Shunday ekan har bir faoliyatni to'g'ri tashkil etish lozim. Bu esa tarbiyachining qay darajada tashkilotchi ekaniga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1- Tosheva Nurzoda Toshtemirovna "Maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etish.
- 2- Hasanboyeva "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi"
- 3- Ilk qadam davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.